IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

TRANSPOZITSIYA NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA LINGVISTIK TALQINLARI

Abdurayimova Muxlisaxon Sobitjon qizi
Qo‘qon davlat universiteti magistranti
muxlisasodiqjonova1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada transpozitsiya (turkumlararo ko‘chish) nazariyasining lingvistika tarixidagi shakllanish bosqichlari, uning asosiy nazariy manbalari va o‘zbek tilshunosligidagi talqinlari ilmiy-sistemli tarzda tadqiqqa tortildi. O‘zbek tilida transpozitsiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlari, ya’ni otlashish (substantivatsiya), sifatlashish (adyektivatsiya), ravishlashish (adverbializatsiya) va fe’llashish (verbalizatsiya) hodisalari aniq til materiallariga asoslanib tahlil qilindi.
Kalit so‘zlar: transpozitsiya, so‘z turkumlari, lingvistik olimlar, otlashish, sifatlashish, fe’llashish, ravishlashish, o‘zbek tilshunosligi.

Annotation: This article systematically investigates the formation stages of the theory of transposition (cross-category shift) in the history of linguistics, its principal theoretical sources, and its interpretations within Uzbek linguistics. The manifestations of transposition in the Uzbek language – substantivation, adjectivization, adverbialization and verbalization – are analyzed on the basis of concrete language material.
Key words: transposition, parts of speech, linguistic scholars, substantivation, adjectivization, verbalization, adverbialization, Uzbek linguistics.

Аннотация: В данной статье системно исследуются этапы становления теории транспозиции (межкатегориального перехода) в истории языкознания, её основные теоретические источники и интерпретации в узбекском языкознании. На конкретном языковом материале анализируются формы проявления транспозиции в узбекском языке – субстантивация, адъективация, адвербиализация и вербализация.
Ключевые слова: транспозиция, части речи, лингвисты, субстантивация, адъективация, вербализация, адвербиализация, узбекское языкознание.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda transpozitsiya nazariyasining vujudga kelishi XX asrning boshlariga borib taqaladi. Transpozitsiya (lot. transpositio – o‘rnini o‘zgartirish, ko‘chirish) tushunchasi tilshunoslik fanida ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Transpozitsiya so‘zning o‘z turkumiga xos bo‘lmagan grammatik kategoriyani ifodalab, boshqa so‘z turkumining sintaktik o‘rnini egallashi jarayonidir. Ushbu hodisa tilda leksik boyishning muhim manbai bo‘lib, grammatik shakl hosil qilmasdan so‘zning funksional mazmunini o‘zgartiradi. Masalan, o‘zbek tilidagi “katta” sifati “Kattalar buni biladi” jumlasida ot vazifasini bajarib, otlashish hodisasiga uchragan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o‘zbek tilshunosligida transpozitsiya hodisasi hali to‘liq va sistemli tarzda o‘rganilmagan, nazariyaning shakllanish tarixi hamda uning turli maktablar talqinlari solishtirma aspektda tahlil qilinmagan. Maqolaning maqsadi transpozitsiya nazariyasining shakllanish bosqichlarini, asosiy nazariy yo‘nalishlarini va o‘zbek tiliga xos xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Tarixiy nuqtayi nazardan, transpozitsiya hodisasini o‘rganish antik davrlarga borib taqaladi. Aristotel va uning shogirdlari, keyinchalik lotin grammatik olimlari so‘z shakllarining ko‘chish xususiyatlarini tadqiq qilishgan. O‘rta asrlarda klassik arab grammatikasining asoschisi Sibavayh

so‘zlarning sintaktik va morfologik o‘zgarishlarini, turkumlararo munosabatlarini jiddiy tahlil qilgan. XX asr boshlaridan boshlab funksional grammatika, struktur tilshunoslik va kognitiv lingvistika yo‘nalishlarida faol o‘rganila boshlandi. Mazkur hodisa so‘z turkumlari o‘rtasidagi chegaralarning nisbiyligi, grammatik kategoriyalarning o‘zaro ta’siri hamda tilning funksional tabiatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Transpozitsiyaning tilshunoslikda tarixiy shakllanishi turli lingvistik maktablarda turlicha yo‘nalishda o‘z ifodasini topgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Transpozitsiya tushunchasi tilshunoslik tarixida turli olimlar tomonidan turlicha terminlar bilan yuritilgan: so‘z yasalishining morfologik-sintaktik usuli (V.V.Vinogradov), transpozitsiya (Sh.Balli, H.Ne’matov, O.Kim), transilatsiya, ya’ni translyatsiya (L.Tener), nol morfemali derivatsiya (G.Marchand), noxususiy derivatsiya (N.A.Arutyunova) kabi nomlanishlar bilan ifodalangan. Bu terminologik xilma-xillik mazkur hodisaning tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida – stilistika, struktur grammatika, derivatologiya va funksional sintaksis nuqtayi nazaridan – mustaqil tarzda o‘rganilganidan dalolat beradi [1:70-71].

“Transpozitsiya” terminini fanga birinchi bo‘lib joriy etgan shveytsariyalik tilshunos Sharl Balli bo‘lib, u o‘zining frantsuz stilistikasiga bag‘ishlangan asarida tilshunoslik belgisining (lisoniy znakning) o‘z tabiiy kategoriyasiga xos bo‘lgan qiymatini yo‘qotmagan holda boshqa kategoriyaga mansub belgi vazifasini bajarishini transpozitsiya deb atadi [2:117]. Sh. Balli transpozitsiyaning ikki turini – morfologik (real, ya’ni grammatik ko‘rsatkich yordamida amalga oshadigan) va funksional (sof, ya’ni hech qanday qo‘shimchasiz, faqat sintaktik o‘rinning o‘zgarishi orqali yuzaga keladigan) transpozitsiyani farqlagan. Keyinchalik bu ikki tur leksik va sintaktik derivatsiya sifatida qiyoslangan.

Fransuz tilshunosi Lyusen Tener o‘zining bog‘lanish (dependensiya) sintaksisiga bag‘ishlangan asarida *“translyatsiya” (translation)* terminini qo‘llab, so‘z turkumlarining o‘zaro ko‘chishini sintaktik tugun (nœud) nazariyasi asosida izohlagan[3:364]. Uning fikricha, har qanday transpozitsiya jarayonida boshlang‘ich birlik (translyat) o‘z grammatik tabiatini boshqa turkumga xos vazifaga o‘tkazadi, biroq leksik ma’nosini saqlab qoladi.

Rus tilshunosligida bu hodisa V.V.Vinogradov tomonidan so‘z yasalishining *morfologik-sintaktik usuli* sifatida talqin qilingan; bunda so‘z fonetik tarkibini o‘zgartirmagan holda boshqa so‘z turkumiga o‘tadi va shu yo‘l bilan yangi leksik-grammatik ma’no kasb etadi. E.S.Kubryakova esa derivatsiya, transpozitsiya va konversiya tushunchalari orasidagi nazariy munosabatlarni chuqur tahlil qilib, transpozitsiyani “kategorial ma’noning o‘zgarishi, biroq leksik ma’noning barqarorligi” sifatida belgilaydi va uni konversiyadan farqli, sof sintaktik-funksional hodisa ekanligini ko‘rsatadi[4:64-66]. A.I.Smirnitskiy konversiyani so‘z yasalishining alohida usuli sifatida qarab, bunda so‘z yasovchi vosita faqat so‘zning paradigmasi ekanligini ta’kidlagan, bu qarash O.S.Axmanovaning terminologik lug‘atida ham o‘z aksini topgan[5:17]

O‘zbek tilshunosligida transpozitsiya (turkumlararo ko‘chish) hodisasi A.G‘ulomov tomonidan o‘zbek tili ilmiy grammatikasining “Konversiya” bo‘limida atroflicha tahlil qilingan. Olim bu hodisani o‘n bandga ajratib, leksikalizatsiya, konversiya va transpozitsiyaning o‘zaro aloqasini, shuningdek ularning lison (til) va nutqqa munosabatini ochib bergan. Keyinchalik A.Nurmonov va N.Mahmudov “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi” asarida transpozitsiyani gapning mazmuniy-sintaktik tuzilishi bilan bog‘lab, transpozitsiya jarayonida birlikning kommunikativ bo‘linishi (tema-rema munosabati) yo‘qolishi, ammo nominativ mazmunining saqlanib qolishini ko‘rsatib o‘tgan [7:41-43]. A. Hojiyevning tilshunoslik terminlari lug‘atida ham transpozitsiyaga yaqin konversiya hodisasi “so‘zning fonetik va morfologik jihatdan o‘zgarmay, bir so‘z turkumidan boshqasiga o‘tishi, shu yo‘l bilan yangi so‘z hosil bo‘lishi” sifatida izohlanadi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, transpozitsiya hodisasi tilshunoslikda ko‘pincha transformatsiya va derivatsiya tushunchalari bilan chalkashtiriladi. Transformatsiya sintaktik

birliklarning tub strukturadan hosila strukturaga o‘tishini, ya’ni gap qurilishidagi o‘zgarishlarni anglatib, bu yo‘nalish E.Sepir, L.Blumfild, Z.Xarris va N.Xomskiy tomonidan transformatsion grammatika doirasida ishlab chiqilgan, transpozitsiya esa, aksincha, so‘z turkumi darajasidagi funksional-semantik ko‘chishni ifodalaydi. Demak, har ikki hodisa ham til sathlari (sintaktik va leksik-grammatik) jihatidan bir-biridan farqlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, transpozitsiya hodisasi o‘zbek tilida ham boshqa tillardagidek faol kechadigan jarayon bo‘lib, u asosan to‘rt ko‘rinishda – otlashish (substantivatsiya), sifatlashish (adyektivatsiya), ravishlashish (adverbializatsiya) va fe’llashish (verbalizatsiya) shaklida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlarning barchasida so‘z o‘z dastlabki leksik-semantik mazmunini saqlab qolgan holda, gapda boshqa so‘z turkumiga xos sintaktik vazifani bajaradi.

Otlashish (substantivatsiya). Sifat, son, sifatdosh va boshqa turkumga oid so‘zlarning ot vazifasida kelishi o‘zbek tilida eng keng tarqalgan transpozitsiya turidir. Masalan: *“Kattalar buni biladi”* jumlasida “katta” sifati ko‘plik va kelishik qo‘shimchalarini olib, otga xos morfologik-sintaktik vazifani bajarmoqda; *“Yaxshilik – ezgulik nishonasi”* jumlasida esa “yaxshi” sifati -lik affiksi orqali to‘liq otlashgan. Bunday holatlarda transpozitsiya natijasida so‘z o‘zining belgi bildiruvchi ma’nosini umumlashtirib, predmetlik ma’nosini kasb etadi.

Sifatlashish (adyektivatsiya). Sifatdosh va ravishlarning aniqlovchi vazifasida kelishi natijasida yuzaga keladi. Masalan: *“Oqayotgan suv”, “tinim bilmas mehnat”* kabi birikmalarda fe’ldan yasalgan sifatdoshlar predmetning belgisini bildirib, sifat vazifasini bajaradi.

Ravishlashish (adverbializatsiya). Ot, sifat va fe’l shakllarining holat, payt yoki o‘rin ravishi vazifasida qotib qolishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan: *“U yugurib keldi”* jumlasida ravish darajasidagi “yugurib” shakli fe’lning bajarilish holatini bildirib, ravish vazifasini o‘taydi.

Fe’llashish (verbalizatsiya). Ot va taqlid so‘zlarning fe’l yasovchi qo‘shimchalar yoki yordamchi fe’llar yordamida harakat-holat ma’nosini ifodalashga o‘tishidir. Masalan: *“tasdiqlamoq”, “guvranlamoq”* kabi so‘zlar ot va taqlid so‘zlardan fe’l yasalishining namunasi sifatida transpozitsiyaning fe’llashish turini namoyon etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, A.G‘ulomov tomonidan ishlab chiqilgan tasnif bilan zamonaviy funksional-semantik yondashuvlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud: ikkala yondashuvda ham transpozitsiya til birliklarining nutqdagi vazifaviy o‘zgaruvchanligi, ya’ni so‘z turkumlari chegarasining qat’iy emasligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida transpozitsiya konversiyadan farqli o‘laroq, har doim ham yangi so‘z hosil qilmasligi, balki ko‘pincha vaqtinchalik, kontekstual sintaktik vazifa o‘zgarishi sifatida namoyon bo‘lishi alohida ta’kidlanishi lozim.

Demak, transpozitsiya hodisasi tilning ikki muhim xususiyatini – iqtisodlilik (so‘z boyligini yangi grammatik shakl yaratmasdan kengaytirish) va funksionallik (so‘zning kontekstga moslashuvchanligi) tamoyillarini birlashtirgan holda amalga oshadi. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek tilining agglutinativ tabiati bilan ham bog‘liq bo‘lib, qo‘shimchalarning ko‘p vazifaliligi transpozitsiya jarayonini yanada faollashtiradi.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, transpozitsiya nazariyasi tilshunoslik tarixida uzoq va murakkab evolyutsion yo‘lni bosib o‘tgan. Antik davr grammatik an’analaridan boshlanib, Sh.Balli va L.Ternening nazariy asarlari orqali Yevropa tilshunosligida mustahkamlangan, so‘ngra V.V.Vinogradov, E.S.Kubryakova, A.I.Smirnitsky kabi rus tilshunoslari tomonidan derivatsiya va konversiya tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq holda chuqur ishlab chiqilgan ushbu nazariya, o‘zbek tilshunosligida A.G‘ulomov, A.Nurmonov, N.Mahmudov va boshqa olimlar tomonidan milliy til xususiyatlariga moslashtirilgan tarzda talqin qilingan.

O‘zbek tilida transpozitsiya hodisasi otlashish, sifatlashish, ravishlashish va fe’llashish kabi to‘rt asosiy ko‘rinishda namoyon bo‘lib, bu jarayonlar tilning leksik-grammatik boyishida, so‘z turkumlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Transpozitsiyani konversiya va transformatsiya hodisalaridan farqlash, ularning til sathlariga ko‘ra tasnif qilinishi nazariy jihatdan to‘g‘ri talqin etilishi uchun zarur shartdir. Kelgusi tadqiqotlarda transpozitsiyaning korpus tilshunosligi va kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan o‘rganilishi mazkur sohaning yanada chuqurlashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Виноградов В.В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – М.: Высшая школа, 1972. – 614 с.
2. Bally Ch. Linguistique générale et linguistique française. – Paris: Librairie Ernest Leroux, 1932. – 374 p.
3. Tesnière L. Éléments de syntaxe structurale. – Paris: Klincksieck, 1959. – 670 p.
4. Кубрякова Е.С. Деривация, транспозиция, конверсия // Вопросы языкознания. – 1974. – №5. – С. 64–66.
5. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Изд-во литературы на иностранных языках, 1956. – 260 с.; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с.
6. G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek tili (ilmiy grammatika). “Konversiya” bo‘limi. – Toshkent: Fan, 1980.
7. Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 2007.
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 166 b.
9. Sepir E., Bloomfield L., Harris Z., Chomsky N. – tr. bo‘yicha: Зулфиқорова Д. Трансформация ходисасининг ўрганилишига доир айрим мулоҳазалар // CyberLeninka, til.tahlil.
10. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
11. Турдибеков Т.Ҳ. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси: Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 24 б.